

## MILLAT OYDINLARI

**Mamaraximova Nigora Mahmudjonovna**

*Namangan viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi, metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi, ona tili va adabiyot fani metodisti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Vatan saodati, millat kelajagi, uning baxti va ravnaqi uchun fidoyilik ko‘rsatgan ma’rifatparvar jadidlarimizning turkiy xalqlarning yagona maqsad yo’lida birlashishida, jipslashishida amalga oshirgan mardonavor harakatlari to‘g‘risida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** jadidchilikning boshlanishi, o‘zbek ma’rifatparvarlarining sa’y-harakatlari, yangicha usul-yangicha qarash, jadid maktablari, Yangi O‘zbekiston-dunyo nighida.

“O‘z zamonining ilg‘or namoyandalari bo‘lgan jadidlar g‘oyat murakkab va qiyin sharoitda bilim va ma’rifat tarqatish, ta’lim-tarbiya sohasini tubdan islohol etish orqali milliy taraqqiyotga erishish g‘oyasi bilan maydonga chiqdilar” [Mirziyoyev Sh.].

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida jahon sivilizatsiyasining taraqqiyotida keskin burilishlar davri bo‘ldi. Chunki bu davrda chuqur islohotlar, birinchi va ikkinchi jahon urushlari hamda ilm-fan taraqqiyotida tub o‘zgarishlar ro‘y berdi. Butun bir millatning, jamiyatning butunlay yod jamiyat ta’sirida qolishi nafaqat hayotda balki kishilarning falsafasida ham inqilob yasadi. XIX asrning oxiri va XX asrning boshida Markaziy Osiyoda ham boshqa mintaqalarda bo‘lgani kabi o‘zgacha fikrlovchi, yangicha qarash vakillari shakllanib bordi.

Hammamizning xabarimiz bor. Dekabr oyida poytaxtimizdagi “Tashkent City Congress Hall” xalqaro ishbilarmonlik markazida Milliy mass-mediani qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi, Qatag‘on qurbanlari xotirasi davlat muzeyi, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti va Turkiy davlatlar tashkiloti hamkorligida **“Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari”** mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya bo‘lib o‘tdi. Konferensiyani o‘tkazishdan maqsad, jadid ma’rifatparvarlari: Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Is‘hoqxon To‘ra Ibrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lponlarning hayoti va ijtimoiy faoliyati, ularning ilmiy-ijodiy merosini keng ko‘lamda o‘rganish va eng asosiysi boshi berk ko‘chaga kirib qolgan xalqni ozodlikka olib chiqishning yagona to‘g‘ri yo‘li nafaqat ma’rifatda, ta’limda, siyosatda balki turkiy xalqlarning yagona maqsad yo’lida birlashishida, jipslashishda amalga oshirilgan mardonavor harakatlarni e’tirof etish edi.

11-12-dekabr kunlari bo‘lib o‘tgan mazkur nufuzli tadbirda hukumat vakillari, tarixchi olimlar, adabiyotshunoslar, shuningdek, AQSH, Germaniya, Niderlandiya,

**PROFESSOR RAHMATULLA BARAKAYEVNING 70 YILLIGI**

Ozarbayjon, Turkiya, Shvetsiya, Qirg‘iziston, Qozog‘iston va Yaponiya davlatlaridan tashrif buyurgan xorijlik akademiklar, ekspertlar ishtirok etdilar.

Ushbu konferensiyani ijtimoiy tarmoqlarda kuzatar ekanman, o‘zbek xalqining bir farzandi sifatida qalbimda faxr, iftixor tuyg‘ulari jo‘sh urdi. Sababi mana shunday buyuk bobokalonlarimiz, jadidlarimiz tomonidan 3-Renessansga tamal toshini qo‘yib ketilgani har qanday insonni ruhlantiradi, unga ishonch baxsh etadi. Ayniqsa, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan murojaatlaridagi ushbu so‘zлari juda ahamiyatlidir. “O‘ylaymanki, tarixda ikki buyuk Renessansga zamin bo‘lgan mintaqamizda uchinchi Renessansni aynan jadid ajdodlarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Afsuski, mustabid tuzum ularning ezgu g‘oya va amaliy harakatlarini to‘la ro‘yobga chiqarishga imkon bermadi. Biz bugun mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyatni, huquqiy demokratik davlat barpo etar ekanmiz, jadid bobolarimizning gumanistik qarashlariga tayanamiz, ularning merosidan ma’naviy kuch-quvvat olamiz.”

Jadidlar millatni, vatan saodati, uning baxti va ravnaqi uchun millat taraqqiy topishi, yurt ozodligi uchun fidoyilik ko‘rsatishga da’vat etgan edilar. Millat taqdiri va istiqbolini belgilovchi milliy kadrlarni yetishtirib, xalqimizni dunyo miqyosida fikrlay oladigan, chet ellar bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy-ma’naviy munosabatlarda jahon andozalari darajasida ish yuritadigan millatga aylanishiga umid qildilar.

“Bizlarni xonavayron qilg‘on, tarbiyasizlik va jaholatdir. Faqirlik, darbadarlik, xorliklarning hammasi ilmsizlikning mevasidir.” (Mahmudxo‘ja Behbudiy)

“Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir.” (Abdulla Avloniy)

“Oldinga intilmoq ko‘p yaxshidir, kelajakka qo‘l bermoq xo‘p foydalidir, ammo shuni unutmangki, moziyga qaytib ish ko‘rmoq-xayrlidir. (Abdulla Qodiriy) Jadidlar kurashining asl g‘oyasi yagona zaminga ega Turkistonda ozod va farovon jamiyat qurish edi.

“Ol bayrog‘ingni, qalbing uyg‘onsin,  
Qullik, asorat-barchasi yonsin.  
Qur yangi davlat, yovlar o‘rtansin,  
O‘sib Turkiston, qaddin ko‘tarsin.” (Cho‘lpon)

Ular o‘lkamizga ilk bosmaxonani olib keldilar. Birinchi yangi usuldagagi maktabni ochdilar. Hatto qiz bolalar tahsil olishi uchun ham sharoit yaratdilar. Yangi maktab darsliklarini yozdilar va ularni nashr etdilar. Ana shunday ma’rifatparvar, ziyoli, shoir, tarixchi, ilk o‘zbek matbaasini O‘rta Osiyoga olib kelgan jadidlardan biri Is‘hoqxon To‘ra Ibratdir. U Namangan viloyatining

To‘raqo‘rg‘on tumanida tug‘ildi. Maktab, madrasalarni tamomlagach, yirik shahar va mamlakatlarga Jidda, Istanbul, Sofiya, Rim, Afg‘aniston, Kobul, Hindiston, Xitoy, Koshg‘arlarga bordi. U yerning madaniyati, tili, urf-odatlari, ta’lim-tarbiyasini o‘rgandi. Chet eldan qaytgach, ilk bor 1907-yilda o‘z uyida yangi usuldagagi jadid maktabini ochdi. Unda 30 nafar oddiy qishloq bolalariga yangi usuldagagi darsliklar: tibbiyat, jug‘rofiya, musiqa, adabiyot fanlaridan dars berdi. Shu yillarda Ibrat Orenburgga boradi. 1901-yilda chiqqaan litografik mashina sotib olib, Orenburgdan Qo‘qonga poyezdda, Qo‘qondan To‘raqo‘rg‘onga tuyalarda olib keladi. Va ushbu bosmaxonani “Matbaai Is‘hoqiya” nomi bilan ishga tushiradi, Millatning kelajagi uchun, uning farzandlarini o‘qimishli bo‘lishi uchun astoydil harakat qiladi.

“Ovro‘pa xalqi osmonda uchar ekan, bizda soch va soqol nizolari, ovro‘paliklar dengiz ostida suzar ekan, bizda uzun va kalta kiyim mojarolari, Ovro‘pa shaharlari bugun elektr bilan yoritilur va isitilur ekan, bizning maktablarda tibbiyat va jug‘rofiyani o‘qitish va o‘qitmaslik ixtiloflari.” (Munavvar Qori)

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, global geosiyosiy vaziyatdagi jarayonlar ta’sirida xalqlarning ong-shuurida yuz berayotgan o‘zgarishlar hamda buning natijasida O‘zbekistondagi yosh avlodning milliy tariximizni o‘rganishga bo‘lgan talabining oshishi konferensianing dolzarb ahamiyatini belgilab berdi. “Buyuk ma’rifatparvar bobolarimiz tomonidan olg‘a surilgan g‘oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-ma’rifiy va huquqiy-axloqiy qarashlar, turli millat va elatlar o‘rtasida bag‘rikenglik va hamjihatlik tamoyilini qaror toptirish bilan birga, milliy manfaatni himoya qilishga qaratilgan intilish hozirgi murakkab va tahlikali zamonda barchamiz, avvalo, yoshlar uchun chinakam ibrat namunasidir. Ularning hayoti va jasorati bugungi tinch va osoyishta kunlarga osonlik bilan erishilmaganini eslatib, milliy istiqlolimizni, jonajon Vatanimizni ko‘z qorachig‘iday asrashga doimo da‘vat etib turadi”, deyiladi davlatimiz rahbari murojaatida. Konferensiyada O‘zbekiston Prezidenti yordamchisi Saida Mirziyoyeva ham ishtirok etib, nutq so‘zлади. Turli mamlakatlardan konferensiyaga tashrif buyurganlarga minnatdorchilik bildirib, mamlakatimiz uchun eng muhim mavzulardan biri – millat ta’lim-tarbiyasi masalasini muhokama qilish va O‘zbekistonda jadidlar boshlagan ishlarni davom ettirish vaqtin allaqachon yetib kelganini ta’kidladi. “Bugun men “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya ochilishida nutq so‘zlar ekanman, tilimizga bevosita aloqador bo‘lgan milliy alifbomizni isloh qilishdek juda dolzarb masalaga to‘xtaldim. Bir qarashda oddiy tuyulgan imlo belgisi butun boshli Davlat va Millatning nomi xato yozilishiga sabab bo‘lmoqda. Biz bunday masalalarda hadeb bahslashavermay, tezroq qabul qilishimiz muhim. Chunki, gap

bizning millatimiz g‘ururimiz, yurtimiz nomi haqida ketyapti.” Zero buyuk bobokalonimiz Abdulla Avloniy aytganlaridek: “**Har bir millatning dunyoda borligini ko‘rsatadurgan oynayi hayoti til va adabiyotdir. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur**”

Hukumatimiz, shaxsan davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonlaridan ma’rifatparvar bobolarimizning muqaddas orzularini ro‘yobga chiqarish uchun mamlakatimizda yangi Renessans poydevorini yaratishni strategik vazifa qilib belgilab olindi. Shu maqsadda respublikamizning barcha ilm-fan, ta’lim-tarbiya, madaniyat sohalarida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada avvalo ta’lim tizimini zamon talablari asosida tashkil etish, o‘qituvchi va murabbiylarning jamiyatimiz hayotidagi o‘rni va ta’sirini kuchaytirish, pedagoglarni yangi zamonaviy ilg‘or metodlar asosida o‘qitish, o‘quvchilarni esa kreativ, tanqidiy, ijodiy fikrlay oladigan avlodlar etib tarbiyalash eng asosiy ustuvor vazifa etib belgilangan. So‘zim isboti sifatida oxirgi yillarda respublikamizda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining soni qariyb 6 barobar ko‘paygani, oliy o‘quv yurtlari soni esa 77 tadan 213 taga yetkazilgani hamda yurtimizda yangi turdagি Prezident maktablari, ijod maktablari, ixtisoslashgan maktablar faoliyati yo‘lga qo‘yilgани jadidlarimizning orzulari amalga oshayotganligidan darak beradi. Yoshlarni har tomonlama barkamol, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq insonlar etib tarbiyalashda taraqqiyparvar ajdodlarimizning aql-zakovati, iroda va matonati barchamiz uchun ibrat maktabi bo‘lib xizmat qiladi.

Bir so‘z bilan aytganda, jadidlar yangi zamonni ilm-ma’rifat asosiga qurilgan ilg‘or jamiyatni orzu qilgan **MILLAT OYDINLARI** edilar.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Behbudiy M., Tanlangan asarlar, Toshkent, 1999
2. Markaziy Osiyo XX asr boshida: islohotlar, yangilanish, taraqqiyot va mustaqillik uchun kurash, Toshkent, 2001.
3. Fitrat, Tanlangan asarlar, 1-2-jiddar, Toshkent, 2000
4. <https://president.uz/oz/lists/view/6007>
5. [https://www.youtube.com/watch?v=Lb\\_5ivLrgmE](https://www.youtube.com/watch?v=Lb_5ivLrgmE)